LAKUNARLIK VA REALIYA

Shaymardanova Aziza Raimjanovna

TerDU o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada lakuna va realiya tushunchasi, uning tasnifi hamda ularning namoyon bo‘lishi to‘g‘risida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Lakuna va realiya , muqobilsiz leksika, muloqot, tushunchaning ifodalanishi.

Tilda “muqobilsiz leksika – muayyan xalq taraqqiyotining ma’lum davrida tarixiy, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va boshqa shart-sharoitlar zamirida vujudga kelgan, ma’lum xalq urf-odatlari, an’analari, madaniyati, mentaliteti, turmush tarziga xos predmet va tushunchalarni ifodalovchi, boshqa tillarning lug‘aviy tizimida muqobili bo‘lmagan, o‘zga tillarga tarjima qilib bo‘lmaydigan so‘z va birikmalar”[1; 32] mavjud bo‘lib, realiya nomi bilan yuritiladi.

Til va madaniyatning o‘zaro aloqasida bir millatga oid turmush tarzi bilan bog‘liq tushunchalarda realiyaning o‘rni sezilarlidir.

Bir tilga xos so‘zlarning muqobili o‘zga til lug‘at tarkibida mavjud bo‘lmasa, muqobilsiz leksika borligidan dalolatdir. Ushbu termin E.M.Vershagin va V.G.Kostomarov [2; 53] tomonidan kiritilgan bo‘lib, muqobilsiz leksikaning xarakterli jihati ularni boshqa tilga tarjima qilib bo‘lmasligi va boshqa tildagi so‘zlarga mos kelmaganligidadir. Bu ularni mutlaqo tarjima qilib bo‘lmaydi degani emas, balki ular bilan bog‘liq bo‘lgan obrazlarning “fonli” tushunchalaridan foydalanishni taqozo etadi. Zero, “fon”li bilim bu – “boshqa xalq, boshqa mamlakat hayot tarzini aks ettiruvchi haqiqiy “fon”dan iborat tushunchalar majmuasidir”[3; 46;].

“Realiya” so‘zining o‘zi lotin tilidagi sifatning ko‘plik shakldagi sredniy rodi bo‘lib (realis – ko‘pligi, birlikda realiya – “haqiqiy”, “moddiy”), mavjud leksik kategoriyaning ta’siri ostida otga aylanib ketgan.

G.D.Tomaxinning fikricha, “realiya bu – ma’lum bir xalqqa va millatga tegishli bo‘lgan moddiy, madaniy tushunchalar, tarixiy faktlar, milliy xalq og‘zaki ijodi qahramonlarining nomlari, mifologik mavjudotlar va hokazolarga oid nomlardir [4; 13]”. U realiya so‘zi narsa, tushuncha ma’nosida kelishini aytadi va qisqaroq qilib izohlaydi.

Realiyalar bo‘yicha bir qancha tadqiqot ishlari olib borilgan. Masalan, O.S.Lilikovichning ishi ham bunga misol bo‘ladi[5; 26].

Realiyaga kengroq ta’rif S.Vlaxov va S.Florin tomonidan keltirilgan. “Realiya – shunday so‘zlar va so‘z birlikmalaridirki, ular obyektlarni ataydi, bir xalq hayoti, turmush tarzi, madaniyat, tarixiy va ijtimoiy rivojlanish uchun xarakterga ega, lekin boshqa xalqqa yot bo‘lgan, milliy va tarixiy koloritni tashuvchilari bo‘lib ular, boshqa tilda aniq ekvivalentga ega bo‘lmagan, tarjimaga moyil emas” [6; 55]. O‘z navbatida, bu olimlar atama va realiyani farqli xususiyatga egaligini, atamalar deyarli istalgan matnlarda tarjima qilinadigan muqobillarga ega birliklarga kirishi, realiyalar esa, muqobilsiz leksika [6; 17] ekanligini ham ta’kidlaydi.

Realiyalarning alohida xususiyati bir til va madaniyatga mansubligi va “predmet” semasiga egaligidir. Ushbu leksik birliklar til hodisasi sifatida jamiyatdagi barcha o‘zgarishlarda tez ko‘zga tashlanib, neologik, tarixiy, arxaik ko‘rinishlarga ega. Ular asosan badiiy adabiyotlarda va xalq ijodiyotidan foydalangan holda so‘zlashuvda ham ishlatiladi. Ayrim realiyalar atoqli otlarga (masalan, ertak qahramonlarining nomlari: Semurg‘, Parizod,

Kashey, Palakqush yoki Buroq (uchar ot)) o‘xshaydi, tarjima birligi bo‘lgan realiyalar abreviatura (QVP, YaTT, SFU, MFY), so‘z (kayvoni, oqsoqol, ulfat, bozor, choyxona, palov), takror so‘z (“jimma-jimma”– “ko‘p-ko‘p” ma’nosida) so‘z birikmalari (mahalla guzari, madaniyat uyi, maishiy xizmat uyi, yoshlar mehnat guzari, yagona darcha va sh.k), jumla (Bir qoshiq qonidan kechmoq, elchiga o‘lim yo‘q, oyqora yopinmoq– choponning bir peshini boshga, bir peshini oyoqqa tortib yotmoq, jaddiga qolmoq – kasriga, kasofatiga qolmoq) ko‘rinishida bo‘ladi.

Milliy va mahalliy o‘ziga xosliklarni ifodalovchi leksik birliklarni bir necha guruhlarga bo‘lishimiz mumkin(1-jadval). Bular:


№			
	Maishiy turmush tushunchalarini ifodalovchi realiyalar	Etnonimlar:	olchin, parito‘p, bolg‘ali, oshiqi
		Gastronimlar	qimiz, bo‘za, chalop, palov, biqtirma, tandirgo‘sht
		Kasb-hunar bilan bog‘liq:	Kosagar, adrasbof, Gulabardor
1.	**O‘lchov va pul birliklarini ifodalovchi realiyalar**	Og‘irlik o‘lchovlari:	pud, botmon, qadoq, chorak
		Pul birligi:	tanga, so‘m, sulkavoy, miri
2.	**Hududiy tushunchalarni ifodalovchi realiyalar**	Xududiy-boshqaruvni ifodalovchi birliklar:	tuman, viloyat, mavze, nohiya
		Turar joyni ifodalovchi	mahalla, daha, qishloq, ovul, hovli, tomorqa
		Inson ta’sirida vujudga kelgan obyektlar	Choyxona, nonvoyxona, oshxona,to‘yxona
3.	**Ijtimoiy-siyosiy hayotga oid realiyalar**	Ijtimoiy xarakat va uyushma nomlari	“Kamolot”, “Yoshlar ijtimoiy harakati”, kasaba, “Yoshlarni mehnat bilan ta’mınlash guzari”
4.	**Qishloq xo‘jaligi bilan bog‘liq inson faoliyati ta’sirida yuzaga kelgan realiyalar**	Asbob nomlari	Omoch, ketmon, bel, kosov
		Yer nomlari	Lalmikor, bahorikor, bo‘z,obi,yaylov
		Obyekt nomlari	Ariq, chayla, chodir,
5.	**Chorvachilik bilan bog‘liq realiyalar**	Obyekt nomlari	Oxur, qo‘ra, qo‘ton
6.	**Fizik va tabiiy hodisalar ta’sirini ifodalovchi realiyalar**	Shamol bilan bog‘liq realiyalar	Afg‘on shamoli, garmsel

1-jadval. **Realiyalarning guruhlanishi**

Masalan, o‘zbek tiliga xos folklor-etnografik realiyalar ham bir qancha bo‘lib, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da berilgan: **jumur** – ba’zi doston yoki ertak qahramonlari

o‘zini tanitmaslik maqsadida kal bo‘lib ko‘rinish uchun qo‘y qornining teskari tomonidan yasab olgan qalpoq: Boshida jumuri, tanida janda. (“Nigor va Zamon”); **zul (jul):** Ayil-pushtasini yeshdi bedovning, Shipirib ustidan oldi zulini. (“Xush keldi” (O‘TIL, II,163)); **maston** – ayyor, jodugar (xotinlar haqida): Xabardor bo‘l. Shirvonning ko‘p mastoni, Mastonlardan xabardor bo‘l, Ravshanjon! (“Ravshan” (O‘TIL, II,554)); **jamalak**– soxta kokil: Kal qiz ham, qirqta qizni o‘ziga yollab olib, qora iplardan orqasiga jamalak qilib, bu ham mis patnislarga.. solib, ko‘tartirib jo‘nadi. (“Murodxon” (O‘TIL, II,67)); **jumalik** – juma kuni munosabati bilan o‘tkaziladigan turli marosimlar: Bukun jumalik qilib chiqqan edim – dedi Qambar. (Oybek, Tanlangan asarlar. (O‘TIL, II,112)); **sarjig‘a** – bosh kiyimiga taqiladigan **jig‘a:** Barchin Ko‘kaldoshning boshidagi sarjig‘ani ko‘rib, alplarning zo‘ri shu – Ko‘kaldosh ekanini bilib, alplarga qarab, olti oyga muhlat so‘rab, bir so‘z deb turgan ekan. (“Alpomish”); **Sinch –** otlarning zotini, naslini, yoshini, fe’l-atvorini yaxshi biladigan odam: [Sherbek] Otning tilini Yo‘ldosh novchaday biladigan sinchi yo‘qligiga iqror bo‘lsa-da, biror marta nomini og‘ziga olmagan edi. (S.Anorboev, Oqsoy. (O‘TIL, III, 517)); **choriq** – qattiq xom teridan tikilgan, asosan tog‘lik hududlar xalqlari orasida rasm bo‘lgan oyoq kiyimi: Nodonni siylasang, chorig‘i bilan to‘rga chiqar. (Maqol (O‘TIL, IV, 510)); **parixon –** pari, jin kabi g‘ayritabiiy kuchlar yordamida bemorlarni kasalliklardan xalos qiluvchi; duoxon, azayimxon, folbin: “O‘g‘ri qarisa – so‘fi, g‘ar qarisa — parixon bo‘ladi”, deb bekorga aytishmagan-da. (G‘.G‘ulom, Shum bola. (O‘TIL, III, 223)); **olchin** – uzunlik o‘lchov birligi; arshin va gaz qiymatlariga teng: Moskopda sakkiz olchin shoyi yigirma tanga turarkan. (M.Osim, Karvon yo‘llarida)


Realiyaga muqobilsiz leksika sifatida qaragan tilshunoslar [7; 135] uning bu belgisiga ishora qilib, mutlaqo tarjima qilinmaydi, deya hisoblashgan. Biz esa lakuna va realiya o‘rtasiga ulkan farq qo‘yishdan yiroqmiz, aksincha, lakuna realiyadan unib chiqadi va bir-birini taqozo etadi.



1-chizma

Demak, realiyalar adabiy tilga nisbatan shevaga ko‘proq xos ekanligi bilan ham leksik lakunalardan farq qiladi. Ular ayrim hududlarda nofaol so‘zlar sifatida urf-odat, irimlarga xos tushunchalarni ifodalaydi.

Dastlab, muqobilsiz so‘zlarga lakuna sifatida qaralar edi. Keyingi yillardagi izlanishlar asosida lakuna termini konkretlashdi va uning tarkibidan realiya kabi boshqa yondosh tushunchalar ajratildi. (2-chizma)



L.S.Barxudarov muqobilsiz leksikani quyidagi guruhlarga ajratadi:

1. Boshqa til leksikasida doimiy muqobilga ega bo‘lmagan atoqli otlar va familiyalar, jug‘rofiy nomlar, korxonalar, tashkilotlar, ro‘znomalar;

2. Boshqa til leksik tizimida mavjud bo‘lgan, odamlar amaliyotida ishlatilmagan narsalar, tushunchalar va holatni ifodalovchi realiya so‘zlar;

3. Tasodifiy “lakuna”lar, ya’ni biror tildagi lug‘at birliklari bo‘lib, qaysidir sabablarga ko‘ra boshqa til leksik tizimida muqobilga ega bo‘lmagan so‘zlar[8; 93-94].

Tildagi madaniy lakunalarni tasniflash uning mualliflaridan biri Y.S.Stepanov tomonidan taklif etilgan **madaniy-xoslangan leksika**ni, xususan, realiya tushunchasini aniqlashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Худойберганова Д. Лингвокултуралогия терминларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент: Турон замин зиё, 2015.–Б. 32.
2. Верещагин Е.М., Костомаров В.Г. Лингвострановедческая теория слова. – М.: Русский язык,1980. – 53 с.
3. Шумагер Е.И. Фоновая лексика, ее своеобразие и связ с культурой // Лексика и культура. – Твер: Тверской государственный университет, 1990. – 46 с.
4. Томахин Г.Д. Реалии в культуре и языке // Иностранные языки в школе., №1, 1981.– С.13.
5. Лиликович О.С. Лингвокогнитивный и лингвокультурологический потенциал испанских реалий в художественном дискурсе эдуардо мендосы. Автореф.дисс. на соиск. уч. степ.кан. фил. Наук. – М.: 2016. – 26 с.
6. Влахов С., Флорин С. Непереводимое в перевода. – М.: Международные отношения, 1986. – С. 17; 55.
7. Верещагин Е.М., Костомаров В.Г. Лингвострановедческая теория слова – М.: Русский язык, 1980. – 135 с.
8. Бархударов Л.С. Язык и перевод. – М., Международные отношения, 1975. – 93-94 с